

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“MOLIYAVIY TAHLIL” KAFEDRASI**

**“MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI”  
fanidan malakaviy amaliyot o'tash  
bo'yicha**

**D A S T U R**

**Toshkent-2015**



**“TASDIQLAYMAN”**

O'quv ishlar bo'yicha prorektor  
O.Ortiqov  
\_\_\_\_\_ 2015 yil

Fanning amaliyot dasturi Toshkent moliya institutining “Moliyaviy tahlil” kafedrasida 230 000 – “Iqtisod” ta’lim sohasining bakalavriat ta’lim yo’nalishlari o’quv rejasi va o’quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan

<b>Tuzuvchilar:</b>	Rahimov M.Yu.	TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasidir, i.f.n.dosent.
	Choriyev I.H.	TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasida katta o’qituvchisi
	Mavlanov N.N.	TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasida katta o’qituvchisi
<b>Taqrizchilar:</b>	Xakimov B.J.	TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasida dosenti, i.f.n.
	Sagdillaeva Z.A.	TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrasida dosenti, i.f.n.

Fanning amaliyot dasturi “Moliyaviy tahlil” kafedrasining 2015 yil 20 avgustdagi 1 - sonli majlisida muhokama qilindi va ma’qullandi

Kafedra mudiri

M.Rahimov

Fakultet dekani

K.Karimova

## SO'Z BOSHI

So'nggi yillar davomida mamlakatlar iqtisodiyotiga global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jahon valyuta zaxiralarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investisiyaviy faollikning susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

“Biz bugun 2013 yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz.”<sup>1</sup>

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy sub'ektlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash, mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanish, qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va maxsulot tannarxini pasaytirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini talabga binoan aniqlash, eksport hajmini oshirish, import o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, korxonalar samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash kabi vazifalarning amalga oshirilishiga katta e'tibor berilmoqda.

Buning natijasida “Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi”.<sup>2</sup>

2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishda professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash<sup>3</sup> bosh ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.<sup>4</sup>

Respublikamiz moliya-bank tizimida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar hamda milliy iqtisodiyotimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishida malakali mutaxassislarning o'rni beqiyosdir.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”. Xalq so'zi" gazetasi, 20 yanvar 2014 yil.

<sup>2</sup> Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. “Xalk so'zi” gazetasi, 19 yanvar 2015 yil.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442 son qarori

<sup>4</sup> Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. “Xalk so'zi” gazetasi, 19 yanvar 2015 yil.

Shu sababli respublikamizda malakali mutaxassislarni tayyorlashda nazariy o'qish jarayoni bilan amaliyotni o'zaro uyg'unlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Amaldagi yangilangan va takomillashtirilgan Oliy ta'lim standartlarida ham talabalarning malakaviy amaliyot o'tashiga yetarlicha ahamiyat berilgan.

“Moliyaviy tahlil” kafedrasidan 230 000 – “Iqtisod” ta'lim sohasining bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanining maqsadi va vazifalari ham talabalarga iqtisodiyot sub'ektlarida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatiga baho berish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ichki imkoniyatlarni aniqlash, ilg'or tajribalarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Talabalar ushbu fandan malakaviy amaliyot o'tash orqali institutda olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyotni o'tash bo'yicha dasturda iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish tartibi belgilab berilgan. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida talabalar korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy barqarorligi, raqobatga bardoshlilik, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatliligi, moliyaviy natijalari, asosiy vositalari, pul mablag'lari hamda xususiy kapitalini tahlil etadi va ularga baho beradi.

Shu boisdan ham 230 000 – “Iqtisod” ta'lim sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan amaliyot o'tishi ularning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlaydi.

### **Malakaviy amaliyotning maqsadi va vazifalari**

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatini samarali va maqbul boshqarish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshqaruvchilar xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini samarali va to'g'ri boshqarish uchun zarur ma'lumotlarga o'z vaqtida ega bo'lishlari zarur. Bunday ma'lumotlarni moliyaviy-xo'jalik jarayonlari va ularning natijalarini tahlil qilish orqali olish mumkin. Xo'jalikda iqtisodiy tahlil ishlari shu soha bo'yicha etarli nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, iqtisodiyot sub'ektlari faoliyati bilan bevosita va bilvosita qiziquvchi sub'ektlar uchun ham ularning moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganish va tahlil qilishda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarga talab yuqori bo'ladi. Shu sababli 230 000 – “Iqtisod” ta'lim sohasidagi bakalavriat yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalar “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan ham nazariy,

ham amaliy bilimlarni o'zlashtirishlari shart. Talabalarning malakaviy amaliyot o'tash jarayoni ulardagi amaliy ko'nikmalarni yanada mustahkamlaydi. Shu sababli ham iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda malakaviy amaliyot muhim ahamiyatiga ega.

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyot o'tash davrida talaba korxonaning o'ziga xos jihatlari bilan yaqindan tanishib, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llagan holda moliyaviy ko'rsatkichlarga baho berishni o'rganadi.

Malakaviy amaliyot talabaning tahliliy ishlarni bajarish bo'yicha mustaqil ijod qilishga undaydi.

Malakaviy amaliyot o'tash davrida talaba korxonaning yillik moliyaviy hisobot shakllariga asoslangan holda mustaqil ravishda korxonaning bir yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilib chiqishi lozim. Bu jarayonda talaba tahlil uchun ma'lumotlar yig'ishi, ularni qayta ishlashi va analitik jadvallarga joylashtirishi, tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirishi, hisob kitoblar asosida aniq xulosa va takliflar berishi talab etiladi. Shu asosda talaba malakaviy amaliyot natijalari bo'yicha hisobot tayyorlaydi.

Malakaviy amaliyot bo'yicha tayyorlangan hisobotda malakaviy amaliyot dasturining barcha mavzulari qamrab olinishi hamda ularga ob'ektiv baho berish lozim.

Tahlilda asosiy e'tibor korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kreditga layoqatliligi, moliyaviy natijalari, rentabellik ko'rsatkichlari, asosiy vositalarining tarkibi va ularning harakati, pul mablag'larining oqimi hamda xususiy kapitalga qaratilishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarini nazariy echimini berishi lozim bo'ladi.

Malakaviy amaliyotda ko'riladigan masalalar ushbu dasturning asosini tashkil etadi. Talabaga malakaviy amaliyot bo'yicha rahbarlik qiluvchi professor-o'qituvchi ham, korxonaning tomonidan belgilangan mutaxassis rahbar ham mazkur dasturning ayrim bandlariga korxonaning xususiyatidan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin. Talabaning malakaviy amaliyot o'tash davridagi ish faoliyati korxonaning va institut tomonidan belgilangan rahbarlar bilan birgalikda tuzilgan kalendar-tematik reja asosida tashkil etiladi.

Amaliyotni o'tash davomida amaliyotchi talaba kundalik siyosiy-iqtisodiy voqealardan xabardor bo'lishi, Moliya vazirligi, Davlat Statistika Qo'mitasi, Markaziy bank, Soliq Qo'mitasi va boshqa yuqori tashkilotlar tomonidan chiqarilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ishlab chiqarishga tadbiriq etish uchun tavsiya etilgan ko'rsatmalar, nizomlar va boshqa ma'lumotlar bilan yaqindan tanishib borishi lozim.

## **Malakaviy amaliyot davomida o'rganiladigan mavzular**

### ***1-mavzu. Moliyaviy va boshqaruv tahlilida foydalaniladigan hisobot ma'lumotlarini dastlabki tekshirish va qayta ishlash***

Xo'jalik sub'ektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan oldin talaba ushbu sub'ektlarning yillik moliyaviy hisobot shakllari va ularning ilovalari bilan tanishishi kerak. Har bir moliyaviy hisobot shaklining to'g'ri to'ldirilganligini, ma'lumotlarning bir-biriga mosligini, yillik moliyaviy hisobot shakllarining o'z vaqtida tegishli nazorat organlariga taqdim etilganligini, hisobotlarning to'liq hajmda ekanligini o'rganib chiqish zarur. Talaba korxonaning quyidagi yillik moliyaviy hisobot shakllarini tahlil jarayonini boshlashdan oldin olishi lozim:

- “Buxgalteriya balansi” - 1-shakl;
- “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” - 2-shakl;
- “Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma” - 2-a shakl;
- “Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot” - 4 -shakl;
- “Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot” -5-shakl;
- Yillik moliyaviy hisobotlarga ilovalar va qo'shimcha ma'lumotlar.

### ***2-mavzu. Korxonaning moliyaviy holati tahlili***

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida korxonalarining moliyaviy holatini o'rganish tahlilning muhim va zaruriy yo'nalishi hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy holatini o'rganishda buxgalteriya balansi asosiy ma'lumot manbasi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu mavzu yuzasidan talaba korxonaning buxgalteriya balansi asosida mol-mulk va manbalarni tarkibi, tuzilishi, dinamikasi bilan tanishib chiqadi, balans moddalaridagi o'zgarish sabablarini aniqlaydi. Korxonaning balansidagi uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlarni tutgan ulushini, ularni yil boshiga nisbatan o'zgarishi, o'sish sur'atlari aniqlanadi. Joriy aktivlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar bo'yicha xulosalar beriladi.

Mazkur mavzu yuzasidan talabalar yana quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi: korxonaning mol-mulking tashkil topish manbalarini tahlil qilish. Korxonaning o'ziga qarashli aylanma mablag'larini mavjud summasini hisoblab topish va ularni o'zgarish sabablarini aniqlash. Korxonaning o'z aylanma mablag'larini holatini tahlil etish. Korxonaning ishlab chiqarish potensialini yil boshiga nisbatan o'zgarishini tahlil qilish. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida balans likvidligini tahlil qilish. Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etish. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni yil boshiga nisbatan o'zgarishiga baho berish. Joriy mablag'lar aylanishini tahlil etish. Joriy mablag'larning ayrim elementlari bo'yicha aylanishini aniqlash va

ularni tezlashtirish chora tadbirlarini belgilash. Korxonada moliyaviy holatini yakuni bo'yicha umumiy xulosa qilish.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar mazkur mavzu bo'yicha yuqoridagi savollarni o'rganishlari bilan bir qatorda, har bir ta'lim yo'nalishi talabalari o'zlarining ixtisosligidan kelib chiqib quyidagi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi.

“Moliya”, “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)”, “Sug'urta ishi” va “Pensiya ishi” yo'nalishidagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishlari tavsiya etiladi:

- Firma va kompaniyalar moliyaviy holatiga to'liq va keng ravishda baho berishga;
- Firma va kompaniyalarning mavjud moliyaviy resurslardan qanday darajada samarali foydalanayotganligiga baho berishga;
- Firma va kompaniyalarning ma'lum bir faoliyat yo'nalishlarini moliyalashtirish manbalarini o'rganishga;
- Moliyaviy koeffitsientlarni tahlil etishga.

“Bank ishi” va “Baholash ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborini quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Korxonaning umumiy moliyaviy holatiga;
- Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etishga;
- Korxonaning kreditga layoqatliligini tahlil etishga;
- Korxonada balansni likvidligini tahlil etishga;
- Korxonaning joriy mablag'larini aylanish tezligini o'rganishga.

### ***3-mavzu. Korxonada moliyaviy natijalarining tahlili***

Korxonada “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” (2-shakl) ma'lumotlari bilan tanishib chiqish. “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” tahlilining ahamiyati, asosiy vazifalarini yoritib berish. Yalpi foyda, asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, umumxo'jalik faoliyatdan ko'rilgan moliyaviy natija, soliq to'languncha qadar foyda va sof foyda dinamikasini tahlil etish, ularni o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablarini aniqlash. Sotishdan ko'rilgan foydaga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash.

1. Yalpi foyda hamda asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaning o'zgarish va unga ta'sir etgan omillarni hisoblash.
2. Umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan moliyaviy natijalarni tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil qilish.
3. Davr harajatlarini tarkibi, dinamikasini tahlil etish, uning tarkibidagi oqlanmagan ortiqcha xarajat va unumsiz xarajatlarni summasini hisoblash.
4. Foydani ishlatilishini tahlil qilish. Korxonada rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni hisoblab topish:

- Sotishdan kelgan tushumning har so'miga to'g'ri keladigan sof foyda(SF) miqdorini o'zgarishini (SF\ST) aniqlash;
  - Korxonada jami aktivi (mol-mulki)ning (A) har so'miga to'g'ri keladigan tushum (ST)ni o'zgarishini (ST\A ) aniqlash.
  - O'z kapitali, sotishdan ko'rilgan rentabelliklarni o'zgarish sabablarini aniqlash va tahlil etish.
5. Ishlab chiqarish rentabellik darajasiga quyidagi omillar ta'sirini hisoblash zarur:
- Sotilgan mahsulotlarning har so'miga to'g'ri keladigan foyda;
  - Fond sig'imi;
  - Tushumning har so'miga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar.

#### ***4-mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili.***

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni tarkibi, tuzilishi va dinamikasi bilan tanishib chiqish, ularni yil boshiga nisbatan o'zgarish sabablarini aniqlash. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish va tahlil qilish. Debitorlik qarzlarni holatini muddatlari bo'yicha tahlil qilish. Kreditorlik qarzlarni holatini tahlil qilish. Muddati o'tgan qarzlarni jami qarzlarda tutgan ulushini aniqlash. Debitorlik qarzlarni undirish muddatini (kunda) hisoblash va o'tgan yilgisi bilan solishtirish.

Debitorlik qarzlarning aylanishini tahlil qilish va xulosa yozish. Kreditorlik qarzlarning aylanishini tahlil etish va xulosa yozish. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanishini tezlashishi yoki sekinlashishining firma va kompaniyalar moliyaviy faoliyatiga ta'sirini o'rganish. Qarzlarni kamaytirish choralarini belgilash.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar mazkur mavzu bo'yicha yuqoridagi savollarni umumiy tartibda o'rganishlari bilan bir qatorda har bir ta'lim yo'nalishi talabalarini o'zlarining ixtisosligidan kelib chiqib quyidagi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratishi tavsiya qilinadi:

“Moliya”, “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)”, “Sug'urta ishi” va “Pensiya ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Korxonada bilan davlat byudjeti o'rtasida debitorlik qarzlarning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularni tahlil etishga;
- Korxonada bilan davlat byudjeti o'rtasida kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularni tahlil etishga;
- Byudjet va nobyudjet tashkilotlari bilan bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni muddatlari bo'yicha tahlil etishga;
- Byudjet oldidagi qarzdorlikni kamaytirish choralarini aniqlashga.

“Bank ishi” va “Baholash ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:



- Korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini chuqur tahlil etishga;
- Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni vujudga kelish sabablarini va ularni tugatish choralarini aniqlashga;
- Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirishda band tashkilotlarining rolini o'rganishga;
- Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlariga debitorlik va kreditorlik qarzlarning ta'sirini tahlil etishga.

### ***5-mavzu. Asosiy vositalarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlili***

Asosiy vositalarning tarkibidagi o'zgarishlar (kirimi, chiqimi) bilan tanishib chiqish.

Ishlab chiqarish asosiy fondlarini, strukturasi va dinamikasini tahlil etish. Ularning tarkibidagi faol (aktiv), nofaol (passiv) qismlarini ulushini yil boshiga nisbatan o'zgarishini aniqlash.

Asosiy vositalarning texnik holati va harakatini (yangilanish darajasi, eskirish darajasi, yaroqlilik darajasi) tahlil qilish. Asosiy vositalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanishni tahlil qilish.

Fond qaytimini va fond sig'imi ko'rsatkichlarini aniqlash. Fond qaytimiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni aniqlash va ta'sirini hisoblash:

- Asosiy fondlar tarkibidagi mashina va jihozlar qiymatini o'zgarishi;
- Mashina va jihozlar fond qaytimini o'zgarishi.

Asosiy fondlardan samarali foydalanish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar mazkur mavzu bo'yicha yuqoridagi savollarni umumiy tartibda o'rganishlari bilan bir qatorda, har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar ixtisosligidan kelib chiqib quyidagi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratishi tavsiya qilinadi:

“Moliya”, “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)”, “Sug'urta ishi” va “Pensiya ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborini quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Asosiy vositalarning tarkibi va ularning holatini o'rganishga;
- Asosiy vositalarni moliyalashtirish manbalarini o'rganishga;
- Asosiy vositalarning texnik holati korxonaning moliyaviy holatiga qanday ta'sir etishini o'rganishga;
- Asosiy vositalarga qo'llanilayotgan amortizatsiya hisoblash usullarini o'rganishga.

“Bank ishi” va “Baholash ishi” bakalavriat ta’lim yo’nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o’rganishda asosiy e’tiborini quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Asosiy vositalar tarkibida bank kreditlari hisobiga olingan vositalarning mavjudligini o’rganishga;
- Bank kreditlarini qaytarishda asosiy vositalarning tutgan o’rniga baho berishga;
- Asosiy vositalarning harakat ko’rsatkichlariga baho berishga;
- Xorijiy investisiyalar hisobiga kirim qilingan asosiy vositalar mavjudligini o’rganishga va hokazo.

### ***6-mavzu. Pul oqimlari harakatini tahlili***

Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot (4-shakl) ma’lumotlariga asoslanib korxonaning faoliyatini o’rganish. Pul mablag’larini kirimi bilan qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni taqqoslab, to’lov qobiliyatiga baho berish.

Operasion faoliyatning tahlili orqali xo’jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag’lariga va foyda miqdoriga bo’lgan ta’sirini aniqlash.

Investisiya faoliyatini o’rganishi orqali korxonaning nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, qimmatli qog’ozlarni sotishdan kelgan tushumini chiqimi bilan taqqoslab, investisiya faoliyati pul oqimlarini sof kirimi (chiqimi)ni aniqlash.

Moliyaviy faoliyat bo’limi orqali aksiya chiqarishdan kapitalga kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi, ijara majburiyatlari bo’yicha tushum va chiqimlarini aniqlash. Pul ishtirokisiz amalga oshirilgan chiqimlarni aniqlash. Pul mablag’lari aylanishi davomiyligini oylar bo’yicha o’zgarishini tahlil qilish.

Pul mablag’lari harakatini tahlili natijalarida quyidagi savollarga berilgan javoblar o’z aksini topishi lozim:

- Qaysi faoliyat yo’nalishlaridan pul mablag’lari kelib tushdi va qanday faoliyat yo’nalishlarga sarflandi;
- Korxonada joriy faoliyatida pul mablag’lari tushumini to’lovlaridan ortishini ta’minlay oladimi;
- Korxonaning olgan foydasi uning xo’jalik faoliyati uchun yetarlimi;
- Olingan foyda miqdori bilan mavjud pul mablag’lari o’rtasidagi farq va boshqalar nimalar bilan izohlanadi.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar mazkur mavzu bo’yicha yuqoridagi savollarni umumiy tartibda o’rganishlari bilan bir qatorda, har bir bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari o’zlarining ixtisosligidan kelib chiqib quyidagi jihatlarga ko’proq e’tibor qaratilishi tavsiya qilinadi.

“Moliya”, “Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo’yicha)”, “Sug’urta ishi” va “Pensiya ishi” bakalavriat ta’lim yo’nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o’rganishda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Korxonada pul mablag’larining to’g’ri boshqarilishiga;

- Pul mablag'larining kelgusidagi prognozlarini aniqlashga;
- Byudjet va nobyudjet tashkilotlari bilan bo'lgan pul mablag'larining harakatiga baho berishga;
- Operasion, moliyaviy va investisiya faoliyatidagi pul mablag'larining harakatiga baho berishga;
- Valyuta mablag'larining kirimi va chiqimini o'rganishga;
- Diskontlangan pul oqimlarini o'rganishga va hokazo.

“Bank ishi” va “Baholash ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridagi talabalar mazkur mavzuni o'rganishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishi tavsiya etiladi:

- Korxonada pul mablag'larining to'g'ri boshqarilishiga;
- Korxonaning buxgalteriya xujjatlaridagi pul mablag'larining kirimi va chiqimi bilan bank ko'chirmasidagi pul mablag'larining harakatini bir-biriga mosligini o'rganishga;
- Pul oqimlarini prognozlashga;
- Pul oqimlarini to'g'ri va egri uslublar bo'yicha o'rganishga;
- Operasion, moliyaviy va investisiya faoliyatidagi pul mablag'larining harakatiga baho berishga;
- Valyuta mablag'larining kirimi va chiqimini o'rganishga;
- Diskontlangan pul oqimlarini o'rganishga va hokazo.

### ***7-mavzu. Xususiy kapital tahlili***

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl) tarkibi bilan tanishish. Uning tarkibidagi ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, xususiy kapital bilan qoplanmagan zararlarni o'sish manbalari va kamayish sabablarini aniqlash. Shu bilan birga, chiqarilgan aksiyalar miqdori, bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividend miqdorini aniqlash va tegishli xulosa qilish.

Iqtisodiy sub'ektlar faoliyatini tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlash va o'tgan yildagi bilan taqqoslab tegishli xulosa qilish:

- Aksiyalarning daromadlilikini;
- To'langan dividendlar ulushini;
- Aksiyaning balans qiymatini;
- Bir aksiya rentabelligini va hokazo.

### **III. Malakaviy amaliyot davrida talabaning majburiyatlari**

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyotda talabaga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

- Malakaviy amaliyotni o'tash oldidan fakultet dekanatdan amaliyot o'tash belgilangan korxonalariga yo'llanma hamda amaliyot kundaligini, “Moliyaviy tahlil” kafedrasidan esa amaliyot o'tash Dasturi va boshqa hujjatlarni olish;
- Malakaviy amaliyot o'tash belgilangan korxonalariga o'z muddatida yetib borishi, korxonaning ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi, korxonaning hamma xodimlari qatori ish rejimiga to'liq rioya qilishi;
- Institut va korxonadan tayinlangan rahbarlar bilan birgalikda malakaviy amaliyot o'tash uchun shaxsiy kalendar-tematik rejasini tuzish;
- Kalendar-tematik rejaga muvofiq malakaviy amaliyot dasturidagi belgilangan mavzularni to'liq o'rganib chiqishi, har kunlik bajarilgan ishlarni amaliyot kundalik daftariga qayd etib borishi va uni korxonadan tomonidan amaliyotni o'tash uchun tayinlangan rahbarga tasdiqlash uchun taqdim etishi;
- Talaba korxonada amaliyot o'tash davomida korxonaning bir yillik faoliyatini moliyaviy tahlil etishi, tahlil natijalarini analitik jadvallarda aks ettirishi va jadvalarga to'liq hulosalar yozib chiqishi shart (bu malakaviy amaliyot bo'yicha hisobot deb ataladi). Bundan tashqari amaliyot hisobotining kirish qismida korxonaning faoliyatining tarixiga va uning keyingi yillardagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlariga qisqacha izoh berib o'tishi lozim bo'ladi;
- Amaliyot bo'yicha yozilgan Hisobotda korxonadan tayinlangan rahbarning talabani malakaviy amaliyotni o'tashi davomida mustaqil analitik ishlarni bajara olish qobiliyatiga, jamoa ishlariga qatnashganligiga bergan bahosi va tavsifnomasi (korxonaning muhri bilan tasdiqlangan holda) qo'shib topshiriladi;
- Korxonaning yillik moliyaviy hisobot shakllari agar korxonadan tomonidan taqdim etilgan bo'lsa alohida yig'ma papkada hisobot bilan birga topshiriladi.

### **IV. Malakaviy amaliyotga rahbarning majburiyatlari**

Malakaviy amaliyotni tashkil qilish va unga uslubiy jihatdan rahbarlik qilish institutning “Moliyaviy tahlil” kafedrasidan tomonidan amaliyot rahbari qilib belgilangan professor-o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi. Amaliyotni o'tash uchun umumiy rahbar korxonaning bosh hisobchisi, uning

yordamchisi yoki reja bo'limining boshlig'i bo'lishi mumkin.

*“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyotga korxonada tomonidan tayinlangan rahbarning majburiyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:*

- Malakaviy amaliyotni o'tashi uchun tegishli shart-sharoit yaratib berish, talabning ish joyini tayinlash, yillik moliyaviy hisobotlar va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- Talabning amaliyot davrida ishga kelishi va ish vaqtidan samarali foydalanishi ustidan kundalik nazoratni o'rnatish;
- Amaliyot dasturining har bir mavzusini o'rganishdan oldin talabaga mazkur mavzuni bajarish tartibi va usullari xususiyatini tushuntirishi, amaliyotni o'tashi davrida kerakli maslahatlar berib borish;
- Talabning korxonaning ayrim bo'limlarida amaliyotni o'tashini tashkil etishi va unga malakali rahbari biriktirib qo'yish;
- Talabadan malakaviy amaliyot dasturida belgilangan ishlarni o'z muddatida bajarilishini talab qilish;
- Amaliyot kundaligiga kunlik bajarilgan ishlarni yozib borilishini tekshirish va uning to'g'riligini tasdiqlab imzo chekish;
- Malakaviy amaliyotning so'ngida talabning amaliyot davridagi ish faoliyati to'g'risida yozma tavsifnoma berish, uning hisoboti bilan tanishib chiqish va imzo qo'ygan holda uni korxonaning muhri bilan tasdiqlash.

*“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyotga institutdan tayinlangan rahbarga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:*

- Malakaviy amaliyotga chiqish oldidan talabalar bilan suhbat o'tkazishi va ularga amaliyot o'tash tartibini tushuntirib berishi;
- Korxonadan amaliyotni o'tash davrida talabaga tayinlangan rahbar va amaliyotchi talaba bilan birgalikda uning shaxsiy kalendar-tematik rejasini tuzish;
- Doimiy ravishda (kafedra tomonidan belgilangan muddatlarda) amaliyotning borishi va talabning bajargan ishi, amaliyot dasturidagi ayrim masalalarni to'liq va chuqur o'rganilishini nazorat qilib borish;
- Malakaviy amaliyotning ayrim mavzulari yuzasidan talabaga maslahatlar berib borish, unda institutda o'zlashtirilgan moliyaviy tahlilning ayrim uslubiy texnikasini amalda korxonada qo'llanilayotgan uslubdan farq qilishiga e'tibor berish, talabada iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish, amaldagi mavjud moliyaviy tahlil uslublarini takomillashtirish bo'yicha mustaqil takliflarni ishlab chiqish va nazariy jihatdan umumlashtirishga asosiy e'tiborni qaratish;

- Malakaviy amaliyot o'tash davrida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun barcha chora tadbirlar qo'llash, dasturni to'liq hajmda va o'z muddatida bajarilishiga erishish, korxonadan tayinlangan rahbar e'tiborini talaba tomonidan malakaviy amaliyot dasturida ko'zda tutilmagan ishlarni bajarishga yo'l qo'ymaslikka qaratish;
- Talabaning amaliyot kundaligiga kunlik bajarilgan ishlarni yozib borilishini va o'z muddatida amalga oshirilishini tekshirib borish.

#### **V. Talabaning ish joyi va malakaviy amaliyotni o'tash muddatining taqsimlanishi**

Talabaning malakaviy amaliyot o'taydigan doimiy ish joyi korxonada (tashkilot, muassasa)ning markaziy buxgalteriyasi yoki reja-moliya bo'limida bo'lishi kerak. Bundan tashqari talaba dasturdagi mavzularning xususiyati hamda ushbu mavzularni to'liq va mukammal o'rganish nuqtai-nazaridan boshqa bo'limlarda ham amaliyotini olib borishi mumkin.

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyot o'tash muddati fakultetlar kesimida quyidagicha belgilanadi:

<b>Fakultet nomi</b>	<b>Malakaviy amaliyotning boshlanish sanasi</b>	<b>Malakaviy amaliyotning tugallanish sanasi</b>
Moliya-iqtisod fakulteti	13 iyun 2016 yil	25 iyun 2016 yil
Kredit-iqtisod fakulteti		
Sug'urta fakulteti		
Byudjet hisobi va davlat jamg'armalari fakulteti	11 iyul 2016 yil	23 iyul 2016 yil
Hisob va audit fakulteti		

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyot o’rta uchun ajratilgan vaqtning mavzular bo’yi taqsimlanishi quyidagi tartibda bo’lishi tavsiya etiladi:

**Amaliyot o’rta mavzulari bo’yi ish vaqtining taqsimlanishi**

<b>№</b>	<b>Amaliyot davrida bajariladigan ishlar va mavzularning nomi</b>	<b>Tavsiya etilayotgan vaqt fondi</b>
1.	Korxonaning ishlab chiqarish strukturasi, texnologiyasi va biznes rejalari bilan tanishish	1 kun
2.	Korxonaning yillik moliyaviy hisobotlari bilan tanishish, hisobotga moliya-kredit tashkilotlari va auditorlik firmalari tomonidan yozilgan dalolatnoma va berilgan auditorlik xulosalari bilan tanishish	1 kun
3.	Korxonaning moliyaviy holati tahlili	3 kun
4.	Korxonaning moliyaviy natijalarining tahlili	2 kun
5.	Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili	1 kun
6.	Asosiy vositalarning holati va ulardan samarali foydalanish tahlili	1 kun
7.	Pul oqimlari harakatini tahlili	1 kun
8.	Xususiy kapital tahlili	1 kun
9.	Malakaviy amaliyot bo’yi hisobotni rasmiylashtirish	1 kun
	<b>JAMI</b>	<b>12 kun</b>

**VI. Talabning malakaviy amaliyot bo’yi hisoboti va uni himoya qilish tartibi**

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan malakaviy amaliyotning yakuniy bosqichi amaliyot bo’yi tayyorlangan hisobotni himoya qilishdan iborat. Hisobot himoyasi “Moliyaviy tahlil” kafedrasidan tuzilgan hisobot himoyasini o’tkazish komissiyasidan tomonidan qabul qilinadi.

Amaliyot belgilangan vaqt davomida to’liq o’ralgan bo’lishi, talaba amaliyotni o’taganligi natijasini aks ettiruvchi hisobotni tayyorlashi va unda korxonadan tomonidan tayinlangan rahbar imzosi bo’lishi kerak.

Malakaviy amaliyot bo’yi hisobot qo’lyozma yoki kompyuter variantida tayyorlanishi mumkin. Analitik jadvallardagi hisob-kitoblarni kompyuter dasturlari yordamida bajarilishiga yo’l qo’yiladi.

Malakaviy amaliyot so’nggida amaliyot natijalari bo’yi tayyorlangan hisobot bilan birga korxonadan tomonidan berilgan tavsifnoma, amaliyot kundaligi

(tegishli tartibda rasmiylashtirilgan holda), korxonaning yillik moliyaviy hisobot shakllari (agar korxonadan tomonidan amaliyot hisobotiga ilova qilish uchun berilgan bo'lsa) kafedraga topshirilishi kerak. Korxonadan tomonidan berilgan tavsifnomasiz hisobot himoyaga tavsiya etilmaydi.

Malakaviy amaliyot bo'yicha tayyorlangan hisobot kafedra tomonidan tayinlangan amaliyot rahbari tomonidan tekshiriladi va yozma ravishda uning yutuq va kamchiliklari aks etgan taqriz beriladi. Hisobotni tekshirishda uning mazmuni, dasturdagi barcha mavzular to'liq hajmda yoritilishi va mustaqil bajarilganligi, o'rganilgan jarayonlarga tanqidiy yondoshilganligi hamda uning to'g'ri rasmiylashtirilishiga ahamiyat berilishi lozim.

Hisobot rahbar tomonidan tekshirilib, unga yozilgan taqriz bilan birgalikda talabaga qaytariladi. Talaba hisobot himoyasiga qadar ishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishi va himoyaga tayyorgarlik ko'rishi lozim. Talaba yozgan hisobotida keltirilgan manbalar va tahlil etishda qo'llanilgan usullar, hisob-kitob ishlarini aniq tasavvur etishi lozim. Korxonada faoliyatiga oid berilgan savollarga aniq javob berishi va korxonada ish faoliyatini yaxshilash uchun belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish va undan ko'riladigan iqtisodiy natijalarni ishonchli dalillar bilan isbotlay olishi kerak.

Malakaviy amaliyot hisoboti himoyasini qabul qilish orqali talabaning nazariy jihatdan olgan bilimi, mustaqil fikrlash qobiliyati, talabaning bilimlarini o'zlashtirishi kabilar aniqlanadi va baholanadi.

**“Moliyaviy tahlil” kafedrasining manzili:  
Toshkent shahri A.Temur ko'chasi 60-A uy.  
Tel: (+99871) 234-04-99**



**Tuzuvchilar:** i.f.n. dos. Rahimov M.Yu.

k.o'q. Choriyev I.H.

k.o'q. Mavlanov N.N.

## **“MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI”**

fanidan malakaviy amaliyot o'tash bo'yicha

### **D A S T U R**

**Manzil:**

Toshkent Moliya instituti, “Moliyaviy tahlil” kafedrası,  
100000, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi 60-A uy.

E-mail: kmot@tfi.uz

Telefon: (+99871) 234-04-99





